7. Берестова Л.И., Социально-психологическая компетентность как профессиональная характеристика руководителя: автореф. дисс. канд. психол. наук: М., 1994. – С. 24.

8. Трифонов Е.В., Психофизиология военно-профессиональной деятельности: словарь. С.-Пб., 2006. – С. 55.

ALFRED ADLER INDIVIDUAL PSIXOLOGIYASIDA SHAXS SIBLING MAQOMI TALQINI

G‘ayibova Nargiza Anorbayevna
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Din psixologiyasi va pedagogika kafedrasi
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Annotatsiya. Mazkur maqola shaxs shakllanishida sibling maqomining psixologik ahamiyati, uning shaxs xususiyatlari, ijtimoiy xulq-atvori, emotsional rivojlanishi va shaxslararo munosabatlarga ta’sir ko‘rsatishi ochib berilgan. Sibling maqomi tushunchasi shaxsning oiladagi aka-uka va opa-singillar tizimida egallagan o‘rni, tug‘ilish tartibi, yosh farqi, o‘zaro munosabatlar xususiyati bilan bog‘liq holda talqin qilingan. Individual psixologiya asoschisi Alfred Adlerning shaxs rivojlanishiga sibling maqomi ta’siri va turli sibling maqomining o‘ziga xos jihatlari borasidagi qarashlari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: oila, shaxs, individual psixologiya, sibling maqomi, sibling munosabatlar, detronizatsiya jarayoni, nomukammallik kompleksi, to‘ng‘ich farzand, o‘rtancha farzand, kenja farzand, yolg‘iz farzand.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СИБЛИНГОВОГО СТАТУСА ЛИЧНОСТИ В ИНДИВИДУАЛЬНОЙ ПСИХОЛОГИИ АЛЬФРЕДА АДЛЕРА

Аннотация. В данной статье раскрывается психологическое значение сиблингового статуса в формировании личности, а также его влияние на личностные особенности, социальное поведение, эмоциональное развитие и межличностные отношения. Понятие сиблингового статуса трактуется в связи с положением, которое человек занимает в семейной системе братьев и сестер, порядком рождения, разницей в возрасте и характером взаимоотношений. Приводятся сведения о взглядах основателя индивидуальной психологии Альфреда Адлера на влияние сиблингового статуса на развитие личности и специфику различных сиблинговых позиций.

Ключевые слова: семья, личность, индивидуальная психология, сиблинговый статус, сиблинговые отношения, процесс детронизации, комплекс неполноценности, старший ребенок, средний ребенок, младший ребенок, единственный ребенок.

INTERPRETATION OF AN INDIVIDUAL'S SIBLING STATUS IN ALFRED ADLER'S INDIVIDUAL PSYCHOLOGY

Annotation: This article explores the psychological significance of sibling status in personality formation, as well as its impact on individual traits, social behavior, emotional development, and interpersonal relationships. The concept of sibling status is examined in relation to a person's position within the family's sibling subsystem, birth order, age gaps, and the nature of sibling dynamics. Furthermore, the article outlines the views of Alfred Adler, the founder of individual psychology, regarding the influence of sibling status on personality development and the specific characteristics of various sibling positions.

Key words: family, personality, individual psychology, sibling status, sibling relationships, dethronement process, inferiority complex, oldest child, middle child, youngest child, only child.

KIRISH

Shaxsning shakllanishi murakkab, ko‘p qirrali va uzluksiz davom etadigan psixologik jarayon bo‘lib, unda biologik xususiyatlar, ijtimoiy muhit, tarbiya, ta’lim, shaxsiy tajriba va shaxslararo munosabatlar o‘zaro ta’sir qiladi. Oila shaxs shakllanishidagi ilk ijtimoiy muhit hisoblanib, oiladagi muhit shaxsning o‘zini anglashi, emotsional barqarorligi, muloqot uslubi, qadriyatlari va xulq-atvor strategiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Oiladagi shaxslararo munosabatlar xususiyatlari bolaning boshqa ijtimoiy institutlardagi xulq uslubi va muloqot sifatiga ta’sir qilmay qolmaydi. Har bir bola avvalo, oilada so‘ngra esa jamiyatda insonlarga bog‘liq, kerakli va sevimli bo‘lishni istaydi. Oilada bolaning o‘z o‘rnini qanday idrok qilishi, uning o‘ziga va boshqalarga baho berishiga yordam beradi. Bu baho esa uning ijtimoiy ustanovkasiga yoki turmush tarziga birlashib, uning hayot yo‘lini belgilashida muhim ahamiyatga egadir.

Sibling maqomi shaxsning oiladagi aka-uka va opa-singillar munosabatlari tizimidagi o‘rnini ifodalovchi ko‘p komponentli tushuncha sifatida qaralishi mumkin. Uning asosiy tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

– Tug‘ilishdagi tartib - bolaning birinchi, o‘rta, kenja yoki yagona farzand sifatidagi o‘rni.

– Siblinglar o‘rtasidagi yosh farqi - o‘zaro munosabatlardagi tenglik, g‘amxo‘rlik va raqobat imkoniyatlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omil.

– Oilaviy rollar - katta farzandga mas’uliyat yuklash, kichik farzandni himoya qilish yoki ayrim vazifalarni muayyan bola zimmasiga yuklash.

– Ota-ona munosabatining xususiyati - farzandlarga jins, yutuqlariga ko‘ra munosabat qilish, ularning ehtiyojlariga javob qaytarish va qoidalarni qo‘llash usullari.

– Sibling munosabatlarining sifati - mehr, ishonch, hamkorlik, raqobat, nizo va o‘zaro yordam darajasi.

– Bolaning subyektiv tajribasi - o‘zini oilada qadrli, e’tibordan chetda qolgan, mas’ul yoki raqobatga majbur bo‘lgan shaxs sifatida his qilishi.

Shaxsga psixologik xizmatni tashkil etishda sibling maqomining yuqoridagi jihatlariga ahamiyat qaratish lozim.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Shaxs shakllanishida sibling maqomi ta’sirini xorijlik olimlar, jumladan A.Adler, Z.Freyd, U.Toumen, R.Richordson, R.Driskoll, D.Iksteyn, R.Brazington, R.Zayons, F.Galton, S.Shaxter, G.Xomentauskas, T.Dumitrashku va boshqalar o‘z madaniy muhiti sharoitida o‘rgangan. Jumladan, XX asrning 70 yillarida avstraliyalik psixolog Uolter Toumen sibling maqomining shaxs shakllanishiga ta’siri mavzusiga oid ko‘pgina tadqiqot ishlari olib bordi. U minglab oilalarni o‘rganib, qadriyatlar tizimining, moliyaviy ahvolining va ma’lumoti darajasining turlicha bo‘lishiga qaramasdan oiladagi o‘rni bir xil bo‘lgan insonlar xarakterida juda ko‘p o‘xshashliklar borligini aniqlagan. U sibling maqomi hatto kelajakda umr yo‘ldoshi tanlashga va u bilan bo‘ladigan munosabatlarga ham ta’sir qiladi, deb hisobladi.

Ingliz olimasi Judi Dann o‘z ishlarida oilada siblinglar o‘zaro munosabatlarini o‘rganib, uni beshta yo‘nalishga asoslanishini isbotladi. Ular: raqobat, bog‘liqlik, xavfsizlikni ta’minlash, yaqinlik (o‘zaro sirlar, samimiy hazillar), umumiy orzu-havaslardir. Masalan, bog‘liqlikni ko‘pgina maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning ko‘pchiligida ko‘rish mumkin. Bolalar orasidagi yosh qanchalik kichik bo‘lsa, munosabatlarda shunchalik bog‘liqlik kuzatiladi.

Mavzu doirasidagi ilk, asosiy tadqiqot va kuzatuv ishlarini individial psixologiya asoschisi Alfred Adler ishlarida ko‘rish mumkin. Olim shaxs shakllanishida ijtimoiy muhitning asosiy roli haqida gapirar ekan, inson hayot tarzidagi asosiy determinant, qilib tug‘ilishdagi tartibni, sibling maqomini ko‘rsatadi. Shaxsning sibling (inglizcha sibling, sibs - bir oiladagi aka-ukalar va opa-singillar) maqomi uning shaxs xususiyatlari shakllanishiga, kishilar bilan munosabatlarining xarakteriga, umuman olganda, kelgusi hayotda o‘z o‘rnini topishiga ta’sir qilishini ta’kidlagan. Adler oiladagi hayot tarzining o‘zgarishi farzandlarning har biriga turlicha ta’sir ko‘rsatadi, deb hisobladi. Bir xil oilada tarbiyalanayotgan bolalar uchun ijtimoiy vaziyat turlicha bo‘ladi. Oilada har bir keyingi farzandning tug‘ilishi, oldingi farzandlar hayot tarzining o‘zgarishiga (ota-

onalar munosabatlari, oiladagi bolalar o‘zaro munosabatlari va boshqalar) sabab bo‘ladi. Har bir sibling maqomining o‘ziga xos taraflari bor, shunday ekan har bir maqomga xos bo‘lgan vaziyatlarni o‘rganish zarur deb hisobladi. Ya’ni, mavjud vaziyatni bola qanday his qilishi, uning sibling maqomi hayot tarziga qanday ta’sir ko‘rsatadi va hokozo.

TAHLIL VA NATIJALAR

Adler qarashlari tizimining markaziy nuqtasini individuum(shaxs)ning sotsiumdan ajralmasligi g‘oyasi tashkil qiladi. Adler shaxsning ijtimoiy determinatlariga alohida e’tibor berar ekan, u quyidagilarni muhim deb hisoblagan:

a) Insonlarning o‘z taqdirlarini o‘zlari yaratishlari;
b) Qoniqarli hayot kechirish uchun hayvoniy mayllarini va nazorat qilib bo‘lmaydigan muhitni bartaraf qilishlari;
c) O‘zini o‘zi anglash orqali o‘zlarini va atrof olamni takomilashtirishlari.

Adlerning ta’kidlashicha, shaxsning doimo oldinga mukammallikka, muvaffaqiyatga, barkamollikka intilishi, hamjihatlik hissi va kimgadir kerak bo‘lish, maqsadga erishish uchun insonlar bilan birgalikdagi faoliyatga intilishi shaxs taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchlardir. Shaxsning o‘zi haqidagi tasavvuri (“Men”- konsepsiyasi), orzusidagi meni (“Men”-ideal), Weltbild (olam obrazi) va o‘zining axloqiy pozitsiyasi o‘rtasidagi nomutanosiblik “nomukammallik kompleksi”ni keltirib chiqaradi. Agar bolada “nomukammallik” kompleksi oz miqdorda bo‘lsa, bu bolani oldinga intilishga, boshqalardan kuchli va aqlli bo‘lishga chorlaydi, ammo “nomukammallik kompleksi”ning ortib ketishi shaxs o‘sishi va rivojlanishiga halaqit qiladi. Adlerning fikricha, bolaga yomon munosabatda bo‘lish, unda “Napaleon kompleksi”ni paydo qiladi, bu esa uning keyingi hayoti qanday bo‘lishini belgilab beradi.

Turli sibling maqomidagi bolaning mavjud vaziyatni idrok qilishi turlicha bo‘lgani kabi hayot tarzi ham shunga qarab o‘zgaradi, deb ta’kidlab, ayrim psixologik xususiyatlar oiladagi ma’lum sibling maqomidagi bolaga xosligini aniqladi. Adler oilada farzandlarning tug‘ilish tartibiga qarab shartli ravishda to‘rt turini farqlaydi: birinchi farzand (to‘ng‘ich), o‘rtancha farzand, kichik farzand (kenja) va yagona farzand. Tadqiqotimiz mohiyati bevosita Adlerning shaxs shakllanishida tug‘ilishdagi tartibning ta’siri g‘oyasi bilan bog‘liqligini hisobga olgan holda, quyida har bir sibling maqomiga olim tomonidan berilgan xulosalarni kengroq keltirishni ma’qul topdik:

Adler ta’rificha, to‘ng‘ich farzand maqomini keyingi farzand tug‘ilgunga qadar havas qilgulik deyish mumkin. Birinchi farzand tug‘ilishini odatda ota-onalar juda intizorlik bilan kutadilar, barchasi “ko‘ngildagidek” bo‘lishi uchun bor kuchlarini ishga soladilar. Ko‘p hollarda to‘ng‘ich farzand ota-onasidan cheksiz

mehr-muhabbat va g‘amxo‘rlik oladi. Bunday munosabatlarning barchasi keyingi farzand tug‘ilishi bilan o‘zgaradi. Bu hodisa uning dunyoqarashi va oiladagi o‘rnini o‘zgartirib yuboradi. Bolaning “taxtdan tushishi”, mavqening birdan o‘zgarishi va kutishlar tizimining ham shunga yarasha boshqacha bo‘lib qolishi bilan bog‘liqdir. Bu holat Adler iborasi bilan aytganda, “detronizatsiya”, ya’ni “taxtdan ayrilish” deb ataladi. Bola uchun bu hodisa juda talofatli bo‘lib, u ota-ona e’tibori uchun ukasi bilan raqobat, kurash olib boradi. Ammo qancha harakat qilmasin oiladagi ilgargi hayotni, mavqeni qaytarib bo‘lmaydi. Vaqt o‘tishi bilan uning talablarini bajarish uchun ota-onalari juda ham bandligini tushunadi. Bundan tashqari ota-onaning boladan ustunlik jihati - avtoritarlik bor, ular bolaning og‘ir xulqi uchun jazolashlari mumkin. Bunday oilaviy kurashlar natijasida bola o‘zini inkor etilgandek his qilib, xech kimning yordami va qo‘llab quvvatlashlarisiz, yolg‘izlikda yashash strategiyasini egallaydi. Ammo ota-onalar o‘z vaqtida mehr-muhabbat bilan to‘ng‘ich farzandga muomala qilsalar va keyingi farzand tug‘ilishiga bolani tayyorlagan bo‘lsalar, “detronizatsiya” jarayoni bola uchun talofatlarsiz o‘tadi. Adler to‘ng‘ich bolaning oiladagi mavqeini hisobga olgan holda, uni mustaqil qarorlar qabul qilishga va liderlikka intiluvchan bo‘ladi deb hisobladi.

O‘rtancha farzandga boshdanoq o‘zidan katta aka yoki opasi ta’sir ko‘rsatib turadi. Shu tufayli uning rivojlanishi to‘ng‘ich farzandlarga nisbatan tez bo‘ladi. Masalan, u to‘ng‘ichga qaraganda tez gapirishi yoki yurib ketishi mumkin. Adlerning fikricha, u hayotda o‘zini o‘zgalardan oldinga o‘tib yugurayotgandek tutadi, kimlardandir o‘zib ketishga intiladi. Natijada ikkinchi farzand, ko‘pincha raqobatdosh va obro‘li shaxs bo‘lib yetishadi. A.Adler o‘rtancha farzand haqida shunday degan edi: “Ikkinchi farzand doimo ikki tomondan bosim ostida bo‘ladi. Bir tarafdan katta akasining o‘zib ketishidan qo‘rqsa, ikkinchi tarafdan ukasining o‘ziga yetib olishidan cho‘chiydi. Agar u oilada jinsi bo‘yicha yolg‘iz bo‘lmasa, oilada o‘z o‘rniga ega bo‘lish uchun qattiq harakat qilishi kerak bo‘ladi. O‘rtancha farzandlarning hayot tarzi boshqalardan ajrab turish uchun, doimo o‘zidan katta opasi yoki akasidan ustunroq ekanligini isbotlashga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shunday qilib, o‘rtancha farzandlarning o‘ziga xosligi muvaffaqiyatga intilishdir. Adler shu bilan birga, o‘rtancha farzandlar o‘z oldilariga erishib bo‘lmaydigan maqsadlarni qo‘yadi, deb hisoblaydi. Shunisi e’tiborliki, Adlerning o‘zi ham oilada o‘rtancha farzand bo‘lgan.

Kenja farzandlarning oiladagi mavqei boshqa munosabatlarda ham o‘zgachadir. Birinchidan, u hech qachon “tojdan ayrilish” shokini boshidan kechirmaydi, oilada kichik bo‘lganligi sababli nafaqat ota-onasi, balki agar katta oila bo‘lsa, katta aka-opalarining ham g‘amho‘rligi va e’tiborida bo‘ladi. Ikkinchidan, agar ota-onasi moliyaviy jihatdan cheklangan bo‘lsa, u oilaning boshqa a’zolarining

“narsa”lardan bemalol foydalanadi. Shu bilan birga undan tajribali va aqlliroqlarning mavjudligi, ularning “kattaligi” unda “nomukammalik” hissini paydo qiladi, bunga mustaqillikning cheklanganligini kiritish mumkin. Chunki uning uchun ba’zi bir ishlarni akalari yoki opalari bajaradi. Shularga qaramasdan kenja farzandning katta siblinglardan o‘tib ketish motivatsiyasi kuchli bo‘lganligi bois, muvaffaqiyatga intilish imkoniyatlari ulkandir. Natijada ko‘pincha u eng zo‘r suzuvchi, eng yaxshi sozanda, hurmatga sazovor talaba bo‘lishi mumkin.

Yolg‘iz farzand maqomi o‘ziga xos murakkab, chunki u bilan ma’lum ma’noda musobaqalashadigan siblinglar yo‘q. Mudom onaning g‘amho‘rligini chuqur his qilishi, ko‘pincha yolg‘iz o‘g‘illarning ota bilan raqobatlashishiga olib keladi. Yolg‘iz farzand hech qachon oilada o‘z o‘rni uchun kurash olib bormagan. Doimo e’tiborda bo‘laganligi sababli, tengdoshlari bilan bo‘ladigan shaxslararo munosabatlarda qiyinchiliklarga uchrashlari mumkin.

XULOSA

Yuqorida A.Adler tomonidan keltirilgan ta’riflar har bir to‘ng‘ich, o‘rtancha, kenja va yolg‘iz farzandlar hayot tarziga to‘laligicha mos kelmasligi mumkin. U faqat har bir bolaning maqomi o‘ziga xos muammolardan iborat (“taxtdan tushish”, kattalar bilan raqobatlashish va shunga o‘xshash) ekanligini ko‘rsatdi. Adlerning shaxsni tadqiq qilishdagi muammolar va ularning yechimini topishga qaratilgan harakatlari har bir bola to‘qnash kelishi mumkin bo‘lgan muammo, oilada siblinglik maqomini o‘rganishni taqozo etadi. Xulosa qilib aytganda, sibling maqomini shaxsning ijtimoiy va emotsional rivojlanishi kechadigan oilaviy munosabatlar tizimining muhim qismi sifatida baholash ilmiy jihatdan asoslidir. Shaxs shakllanishida sibling maqomining o‘rni borasidagi tadqiqotlarni rivojlantirish orqali mazkur muammoni o‘rganish oilalardagi shaxslararo munosabatlarni muvofiqlatirishga xizmat qiladi. Zero, siblinglar o‘rtasida o‘zaro ijobiy munosabatlarning qaror topishi shaxs uchun ham, oila va jamiyat uchun ham foydalidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Адлер А. Индивидуальная психология. - Питер.: СПб, 2021. - 256 с.
2. Адлер А. Как управлят стремлением к превосходству / Возрастная психология. Хрестоматия: Учеб. пособие для студ. пед. вузов - М.: “Академия”, 2000. - 624 с. С.155
3. Дойч Ф. Отношения сиблингов.// Психологическая энциклопедия. Изд. 2-е / Под ред. Р. Корсини, А.Ауэрбаха. - СПб.: 2003.- 936 с.
4. Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования. - М.: Гардарики, 2005. - 320с. С.237-238.
5. Karimova V.M., G‘ayibova N.A. Oila psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. - T.:

2022. - 232 b.

6. G‘ayibova N.A. Sibling maqomi va uning o‘smir shaxslararo munosabatlariga ta’siri. Monografiya. - T.: 2020 - 114 b.

7. G‘ayibova N. A. Sibling munosabatlarning bola intellektual rivojlanishiga ta’siri // Ta'limda istiqbolli izlanishlar 2026 №5. 127-130- betlar.

8. Anorbayevna G. N. Influence of the sibling statuse’s of teenagers on interpersonal relations //European journal of education and applied psychology. - 2016. - №. 2. - S. 68-69.

UDK: 159-942

QANDLI DIABETGA CHALINGAN SHAXSLARDA EMOTSIONAL BARQARORLIK VA INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING O‘ZARO ALOQADORLIGI

Sadikova Umida Botirovna
Ma’mun universiteti Psixologiya kafedrasi
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
email: usadikova74@gmail.com
Tel: (94) 230-86-88

UrDU psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori (PhD),
dotsent **E.R.Raximova** taqrizi asosida

Annotatsiya. Ushbu maqola diabet bilan og‘rigan bemorlarda hissiy barqarorlik va shaxsiy xususiyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotning dolzarbligi butun dunyo bo‘ylab diabetning tarqalishining ortishi va samarali kasalliklarni boshqarishda psixososyal omillarning tobora ko‘proq tan olinishi bilan bog‘liq. Shaxsiy xususiyatlarning hissiy barqarorlik bilan qanday bog‘liqligini tushunish individual psixologik aralashuvlarni rivojlantirishga, bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga va o‘zini o‘zi boshqarish va tibbiy tavsiyalarga rioya qilishni kuchaytirishga yordam berishi mumkin. Ushbu tadqiqot natijalari psixologlar, sog‘liqni saqlash sohasi mutaxassislari va ko‘p tarmoqli diabetga qarshi kurash guruhlari uchun qimmatli tushunchalar berishi kutilmoqda.

Kalit so‘zlar. Qandli diabet, hissiy barqarorlik, shaxsiy xususiyatlar, psixologik farovonlik, surunkali kasallik, o‘zini o‘zi boshqarish.

THE RELATIONSHIP BETWEEN EMOTIONAL STABILITY AND INDIVIDUAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS IN INDIVIDUALS WITH DIABETES MELLITUS

Abstract. This article aims to investigate the relationship between emotional stability and personality traits in patients with diabetes. The relevance of the study is due to the increasing prevalence of diabetes worldwide and the increasing recognition of psychosocial factors in effective disease management. Understanding how personality traits are associated with emotional stability may help develop individual psychological interventions, improve patients’ quality of life, and enhance self-management and adherence to medical recommendations. The results of this

study are expected to provide valuable insights for psychologists, health professionals, and multidisciplinary diabetes management teams.

Keywords: Diabetes, emotional stability, personality traits, psychological well-being, chronic disease, self-management.

ВЗАИМОСВЯЗЬ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ УСТОЙЧИВОСТИ И ИНДИВИДУАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ У ЛИЦ С САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ

Аннотация. Цель данной статьи - исследовать взаимосвязь между эмоциональной стабильностью и личностными чертами у пациентов с диабетом. Актуальность исследования обусловлена растущей распространенностью диабета во всем мире и растущим признанием психосоциальных факторов в эффективном лечении заболевания. Понимание того, как личностные черты связаны с эмоциональной стабильностью, может помочь в разработке индивидуальных психологических вмешательств, улучшении качества жизни пациентов, а также в повышении эффективности самоконтроля и соблюдении медицинских рекомендаций. Ожидается, что результаты этого исследования предоставят ценную информацию для психологов, медицинских работников и междисциплинарных групп по лечению диабета.

Ключевые слова: Диабет, эмоциональная стабильность, личностные черты, психологическое благополучие, хроническое заболевание, самоконтроль.

KIRISH

Qandli diabet butun dunyoda eng keng tarqalgan surunkali kasalliklardan biri bo‘lib, uzoq muddatli metabolik disregulyatsiya va doimiy o‘zini o‘zi boshqarish zarurati bilan tavsiflanadi. Fiziologik oqibatlaridan tashqari, diabet bemorlarning hissiy holatiga va umumiy hayot sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan jiddiy psixologik muammolarni keltirib chiqaradi. Hissiy barqarorlik shaxsning stressli hayot sharoitlariga moslashish, his-tuyg‘ularni tartibga solish va surunkali kasallik mavjud bo‘lganda psixologik muvozanatni saqlash qobiliyatini belgilovchi asosiy psixologik omil hisoblanadi.

Qandli diabet bilan og‘rigan bemorlar ko‘pincha xavotir, asabiylashish, asoratlardan qo‘rqish va depressiv alomatlar kabi hissiy o‘zgarishlarni boshdan kechiradilar. Bu hissiy buzilishlar qaror qabul qilishga xalaqit berishi, davolanishga rioya qilish uchun motivatsiyani pasaytirishi va glikemik nazoratga salbiy ta’sir

ko‘rsatishi mumkin. Shu bilan birga, shaxsiy xususiyatlardagi individual farqlar bemorlarning kasalliklarini qanday qabul qilishiga, stressga qanday munosabatda bo‘lishiga va kurashish strategiyalaridan foydalanishiga ta’sir qiladi. Nevrotizm, vijdonlilik, ekstraversiya va hissiy bardoshlilik kabi xususiyatlar hissiy tartibga solish va sog‘liq bilan bog‘liq xatti-harakatlarda muhim rol o‘ynashi ko‘rsatilgan.

Qandli diabetning psixologik jihatlariga tobora ko‘proq e’tibor qaratilishiga qaramay, diabet bilan og‘rigan bemorlarda hissiy barqarorlik va shaxsiy xususiyatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, ayniqsa integrativ psixologik baholash nuqtai nazaridan, yetarlicha o‘rganilmagan. Ushbu bog‘liqlikni o‘rganish kasallikni samarali boshqarishga yordam beradigan psixologik xavf omillari va himoya resurslarini aniqlash uchun juda muhimdir. Shuning uchun, ushbu tadqiqot diabet bilan og‘rigan bemorlarda hissiy barqarorlik va shaxsiy xususiyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, diabetni davolashga shaxsiylashtirilgan va psixologik jihatdan xabardor yondashuvning muhimligini ta’kidlaydi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarda hissiy barqarorlik va shaxsiy xususiyatlarni o‘rganish zamonaviy sog‘liqni saqlash psixologiyasi va psixosomatik tadqiqotlarda muhim o‘rin tutadi. Xalqaro tadqiqotlar diabet nafaqat metabolik kasallik, balki psixologik stress, hissiy beqarorlik va uzoq muddatli moslashish qiyinchiliklari bilan chambarchas bog‘liq holat ekanligini ta’kidlaydi[1]. Hissiy barqarorlik, ayniqsa, doimiy o‘zini o‘zi boshqarish va turmush tarzini o‘zgartirishni talab qiladigan surunkali kasalliklarda psixologik bardoshlilikning asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi.

L.Fisher va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar[2] klinik depressiyadan farq qiladigan, ammo hissiy muvozanat va o‘zini o‘zi boshqarish xatti-harakatlariga sezilarli darajada ta’sir qiluvchi diabet bilan bog‘liq stress tushunchasini ta’kidlaydi. Qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarda hissiy beqarorlik asoratlardan qo‘rqish, davolanishdan charchoq va nazoratni yo‘qotish hissi bilan bog‘liq. Bu hissiy qiyinchiliklar kasalliklarni samarali boshqarishga xalaqit berishi va hayot sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shaxsiy xususiyatlar bemorlarning surunkali kasallikka hissiy jihatdan qanday munosabatda bo‘lishini aniqlashda markaziy rol o‘ynaydi. P.T.Kosta va R.R.McCraening besh faktorli modeliga ko‘ra, nevrotizm hissiy beqarorlik, xavotir va stressga moyillik bilan kuchli bog‘liq, vijdonlilik esa o‘zini o‘zi tarbiyalash, hissiy tartibga solish va tibbiy tavsiyalarga rioya qilishga hissa qo‘shadi[3,4]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori vijdonli bemorlar hissiy jihatdan yaxshiroq moslashishni va o‘zini o‘zi parvarish qilishda barqarorroq xatti-harakatlarni namoyon etadilar.

Xalqaro tadqiqotlardan tashqari, o‘zbek psixologik adabiyoti shaxsiyat rivojlanishi, hissiy tartibga solish va sog‘liq bilan bog‘liq xatti-harakatlar bo‘yicha qimmatli nazariy va amaliy tushunchalarni taqdim etadi. O‘zbek olimlari hissiy barqarorlik individual psixologik xususiyatlar va ijtimoiy-ekologik omillarning o‘zaro ta’siri orqali shakllanishini ta’kidlaydilar[5]. Shu nuqtai nazardan, diabet kabi surunkali kasalliklar hissiy sohaga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi va vaqt o‘tishi bilan shaxsiyat xususiyatlarini o‘zgartirishi mumkin.

V.M.Karimova[6] hissiy o‘zini o‘zi boshqarish va stressga chidamlilik shaxs yetukligi va psixologik farovonlikning muhim tarkibiy qismlari ekanligini ta’kidlaydi. Surunkali somatik kasalliklarga chalingan bemorlarda hissiy tartibga solishning yetarli emasligi xavotirning kuchayishiga va moslashuvchanlikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Xuddi shunday, M.M.Mamatov[7] uzoq muddatli sog‘liq muammolari bo‘lgan shaxslarga psixologik yordam ko‘rsatishda shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish muhimligini ta’kidlaydi va individual yondashuvlar psixologik aralashuvlar samaradorligini oshirishini ta’kidlaydi.

Tibbiy va sog‘liqni saqlash psixologiyasi bo‘yicha o‘zbek tadqiqotlari ham psixologik baholashni tibbiy amaliyotga integratsiya qilish zarurligini ta’kidlaydi. A.R.Rasulovning [8] fikriga ko‘ra, surunkali kasalliklarga chalingan bemorlarda hissiy beqarorlik ko‘pincha davolash natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishiga qaramay, yetarlicha baholanmaydi. Bu diabet bilan og‘rigan bemorlarda hissiy barqarorlik va shaxsiy xususiyatlarni xalqaro va milliy tadqiqot kontekstlarida o‘rganishning dolzarbligini ta’kidlaydi. Ko‘rib chiqilgan adabiyotlar diabet bilan og‘rigan bemorlarda hissiy barqarorlik shaxsiy xususiyatlar va psixososyal omillar bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Xalqaro tadqiqotlar bu munosabatlar bo‘yicha empirik dalillarni taqdim etsa-da, o‘zbek psixologik tadqiqotlari qimmatli nazariy asoslar va madaniy jihatdan tegishli nuqtai nazarlarga hissa qo‘shadi. Ikkala manbaning integratsiyasi diabetga moslashishning hissiy va shaxsiyat bilan bog‘liq jihatlarini yanada kengroq tushunish imkonini beradi.

Ushbu tadqiqotda qandli diabet tashxisi qo‘yilgan bemorlarda hissiy barqarorlik va shaxsiy xususiyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish uchun miqdoriy, kesma tadqiqot dizayni qo‘llanildi. Ushbu metodologik yondashuv psixologik xususiyatlar bo‘yicha ob’ektiv va o‘lchanadigan ma’lumotlarni olish va o‘rganilayotgan o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqliklarni aniqlash uchun tanlangan. Tadqiqot psixologik tadqiqotning axloqiy tamoyillariga muvofiq, ixtiyoriy ishtirok etish, xabardor rozilik va respondentlarning shaxsiy ma’lumotlarining maxfiyligini ta’minlash asosida olib borildi.

Tadqiqot namunasi ambulatoriya yoki statsionar tibbiy yordam olayotgan diabet tashxisi qo‘yilgan bemorlardan iborat edi. Ishtirokchilar maqsadli namunalar yordamida tanlandi, inklyuziya mezonlari diabetning tasdiqlangan tibbiy tashxisi, psixologik moslashuv jarayonlari sodir bo‘lishi uchun etarli bo‘lgan minimal kasallik davomiyligi va og‘ir kognitiv buzilishlar yoki o‘tkir ruhiy kasalliklarning yo‘qligi kabi mezonlarni o‘z ichiga oldi. Ushbu mezonlar ishtirokchilarning ishonchli o‘z-o‘zini hisobot qilish ma’lumotlarini taqdim eta olishlarini va natijalar vaqtinchalik hissiy holatlar o‘rniga barqaror psixologik xususiyatlarni aks ettirishini ta’minladi.

Ma’lumotlarni to‘plash sog‘liqni saqlash va shaxsiyat psixologiyasida keng qo‘llaniladigan standartlashtirilgan psixodiagnostika vositalaridan foydalangan holda amalga oshirildi. Emotsional barqarorlik shaxslarning emotsional reaksiyalarni boshqarish, psixologik muvozanatni saqlash va stressga dosh berish qobiliyatini baholaydigan tasdiqlangan emotsional tartibga solish va affektiv muvozanat o‘lchovlari orqali baholandi. Shaxsiy xususiyatlar nevrotizm, vijdonlilik, ekstravertlik, rozilik va tajribaga ochiqlik kabi asosiy o‘lchovlarni baholaydigan Besh faktorli modelga asoslangan shaxsiyat inventarizatsiyasi yordamida o‘lchandi. Standartlashtirilgan vositalardan foydalanish olingan ma’lumotlarning ishonchliligi va haqiqiyligini oshirdi.

Statistik ma’lumotlar tahlili emotsional barqarorlik va shaxsiy xususiyatlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish uchun tegishli usullar yordamida amalga oshirildi. Namunaning asosiy xususiyatlarini va o‘zgaruvchilarning taqsimlanishini umumlashtirish uchun tavsiflovchi statistika qo‘llanildi. Emotsional barqarorlik va o‘ziga xos shaxsiy xususiyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikning kuchi va yo‘nalishini aniqlash uchun korrelyatsiya tahlili qo‘llanildi. Kerak bo‘lgan hollarda, klinik yoki demografik omillarga asoslangan holda kichik guruhlar orasidagi farqlarni o‘rganish uchun qo‘shimcha qiyosiy tahlillar o‘tkazildi. Statistik ahamiyat darajasi umumiy qabul qilingan ilmiy standartlarga muvofiq belgilandi. Tanlangan metodologiya diabetning psixologik o‘lchamlarini o‘rganish uchun tizimli va ishonchli asos yaratdi. Emotsional va shaxsiy baholashlarni birlashtirish orqali tadqiqot surunkali kasallikka moslashishga ta’sir qiluvchi psixososyal omillarni chuqurroq tushunishga hissa qo‘shish va diabet bilan og‘rigan bemorlar uchun individual psixologik aralashuvlarni ishlab chiqishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarda hissiy barqarorlik va o‘ziga xos shaxsiy xususiyatlar o‘rtasidagi muhim bog‘liqlikni aniqladi. Tavsif tahlili shuni ko‘rsatdiki, ishtirokchilarning katta qismi o‘rtacha va past darajadagi hissiy barqarorlikni namoyish etdi, bu uzoq muddatli kasalliklarni boshqarish bilan

bog‘liq psixologik yukni va o‘zini o‘zi boshqarishga doimiy ehtiyojni aks ettirishi mumkin. Hissiy tebranishlar, ayniqsa, kasallikning uzoq davom etishi bilan og‘rigan va davolash tavsiyalariga rioya qilishda qiyinchiliklar haqida xabar bergan bemorlarda aniq ko‘rindi.

1-jadval. Qandli diabetli bemorlarda emotsional barqarorlik va shaxs xususiyatlari o‘zaro bog‘liqligi

Shaxs xususiyati	Emotsional barqarorlik darajasi	Qisqa tavsif
Mas’uliyatlilik	Yuqori	Davolanish rejimiga qat’iy rioya qilish bilan bog‘liq
Optimistiklik	O‘rtacha	Kasallikka moslashishda ijobiy ruhiy holatni qo‘llab-quvvatlaydi
Impulsivlik	Past	Hissiy beqarorlikni kuchaytirishi mumkin
Tashvishchanlik	Past-o‘rtacha	Stress holatlariga sezgirlikni oshiradi

Jadval diabet bilan og‘rigan bemorlarda hissiy barqarorlik ularning shaxsiy xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Kuchli mas’uliyatli bemorlarda yuqori hissiy barqarorlik kuzatiladi, chunki ular davolash rejalariga ko‘proq rioya qilishadi. Optimist shaxslar o‘rtacha darajadagi hissiy barqarorlikni namoyon etadilar, bu ularga kasalliklariga ijobiyroq moslashishga yordam beradi. Aksincha, impulsivlik pastroq hissiy barqarorlik bilan bog‘liq va hissiy nomutanosiblikni kuchaytirishi mumkin. Xuddi shunday, xavotirga moyil bemorlar stress va sog‘liq bilan bog‘liq tashvishlarga yuqori sezgirliklari tufayli hissiy barqarorlikning pasayishini ko‘rsatadilar.

Korrelyatsiya tahlili hissiy barqarorlik va nevrotizm o‘rtasida kuchli salbiy bog‘liqlikni ko‘rsatdi. Nevrotizm darajasi yuqori bo‘lgan bemorlarda hissiy beqarorlikning kuchayishi kuzatildi, bu esa yuqori xavotir, asabiylashish va stressga moyillik bilan tavsiflanadi. Bu topilma nevrotizm surunkali kasallik sharoitida hissiy disregulyatsiya uchun asosiy xavf omili ekanligini ko‘rsatadigan oldingi tadqiqotlar bilan mos keladi. Qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarda yuqori darajadagi nevrotizm kasallik bilan bog‘liq xavotirlarni kuchaytirishi va qon glyukoza darajasining o‘zgarishiga hissiy reaktsiyalarni kuchaytirishi, shu bilan psixologik moslashuvni murakkablashtirishi mumkin.

Tajribaga ochiqlik hissiy barqarorlik bilan zaifroq, ammo mazmunli munosabatni ko‘rsatdi. Yuqori ochiqlikka ega bemorlar turmush tarzi o‘zgarishlariga

moslashishda ko‘proq moslashuvchan va psixologik ta’lim va xulq-atvor aralashuvlariga ko‘proq moyil bo‘lib ko‘rindi. Bu moslashuvchanlik shaxslarga yangi kurashish strategiyalarini kundalik ishlariga integratsiya qilish imkonini berish orqali hissiy tartibga solishni yaxshilashga hissa qo‘shishi mumkin.

Topilmalar muhokamasi diabet bilan og‘rigan bemorlarda hissiy barqarorlikning murakkab va ko‘p o‘lchovli tabiatini ta’kidlaydi. Kuzatilgan assotsiatsiyalar shuni ko‘rsatadiki, hissiy barqarorlik shunchaki o‘tkinchi hissiy holat emas, balki barqaror shaxsiyat xususiyatlariga chuqur ildiz otgan. Bu natijalar surunkali kasalliklarga moslashishni biologik, psixologik va ijtimoiy omillar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir sifatida ko‘rib chiqadigan psixosomatik va sog‘liqni saqlash psixologiyasi doiralariga mos keladi. Amaliy nuqtai nazardan, topilmalar diabet bilan og‘rigan bemorlar uchun psixologik yordam dasturlariga shaxsiyatni baholashni kiritish muhimligini ta’kidlaydi. Yuqori nevrotiklik va past vijdonli shaxslarni aniqlash klinisyenlarga hissiy beqarorlik va o‘zini o‘zi boshqarishning sustligi xavfi yuqori bo‘lgan bemorlarni aniqlashga yordam berishi mumkin.

Emotsional tartibga solish ko‘nikmalari, stressni boshqarish va shaxsga asoslangan yengish strategiyalariga qaratilgan maxsus psixologik aralashuvlar ham hissiy farovonlikni, ham kasallik natijalarini yaxshilashi mumkin. Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot natijalari diabet bilan og‘rigan bemorlarda hissiy barqarorlikni shakllantirishda shaxsiy xususiyatlarning ahamiyatini ta’kidlaydigan dalillarning ko‘payishiga hissa qo‘shadi. Ushbu psixologik jihatlarni hal qilish orqali tibbiyot xodimlari diabetga qarshi kurashda yanada yaxlit va individual yondashuvni qo‘llashlari mumkin, natijada bemorlarning hayot sifatini va surunkali kasalliklarga uzoq muddatli moslashuvini yaxshilaydi.

XULOSA

Maqola diabet bilan og‘rigan bemorlarda hissiy barqarorlik va shaxsiy xususiyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib chiqdi va surunkali kasalliklarga moslashishning psixologik jihatlarini ta’kidladi. Topilmalar shuni ko‘rsatadiki, hissiy barqarorlik barqaror shaxsiy xususiyatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, psixologik omillar shaxslarning diabetni qanday qabul qilishi, boshqarishi va moslashishida muhim rol o‘ynashini tasdiqlaydi. Hissiy beqarorlik yuqori darajadagi nevrotizmga ega bemorlarda ko‘proq namoyon bo‘lganligi aniqlandi, vijdonlilik, ekstravertlik va kelishuv kabi xususiyatlar esa yaxshiroq hissiy tartibga solish va psixologik barqarorlik bilan bog‘liq edi.

Topilmalarga asoslanib, bir nechta amaliy tavsiyalar taklif qilinishi mumkin. Birinchidan, diabet bilan og‘rigan bemorlarni muntazam psixologik skrining qilish hissiy barqarorlik va asosiy shaxsiy xususiyatlarni baholashni o‘z ichiga olishi kerak, bu esa hissiy stress xavfi ostida bo‘lgan shaxslarni aniqlashga imkon beradi.

Ikkinchidan, psixologik aralashuvlar bemorlarning shaxsiy profillariga moslashtirilishi kerak, bunda yuqori nevrotiklikka ega bo‘lgan shaxslarda hissiy tartibga solish ko‘nikmalarini mustahkamlashga va vijdonliligi past bo‘lganlarda o‘zini o‘zi boshqarish strategiyalarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Uchinchidan, psixota’lim, stressni boshqarish usullari va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash dasturlarini diabetni davolash rejalariga integratsiya qilish hissiy farovonlikni yaxshilashi va kasallikka uzoq muddatli moslashishni osonlashtirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot hissiy barqarorlik va shaxsiy xususiyatlarni diabetni boshqarishning ajralmas komponentlari sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ta’kidlaydi. Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi uzoq muddatli munosabatlarni o‘rganishi va diabet bilan og‘rigan bemorlar uchun ham psixologik, ham klinik natijalarni yaxshilashda shaxsiyatga asoslangan psixologik aralashuvlarning samaradorligini o‘rganishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Anderson R.J., Freedland K.E., Clouse R.E., Lustman P.J. Qandli diabet bilan og‘rigan kattalarda komorbid depressiyaning tarqalishi: meta-tahlil // Diabetes Care. 2001. 24-jild, № 6. P. 1069-1078.
2. Fisher L., Mullan J.T., Arean P., Glasgow R.E., Hessler D., Masharani U. Diabet bilan bog‘liq qiyinchilik, ammo klinik depressiya yoki depressiv alomatlar emas, balki ham kesma, ham bo‘ylama tahlillarda glikemik nazorat bilan bog‘liq // Diabetes Care. 2010. 33-jild, № 1. P. 23-28.
3. Kosta P.T., McCrae R.R. Qayta ko‘rib chiqilgan NEO shaxsiyat inventarizatsiyasi (NEO PI-R) va NEO besh omilli inventarizatsiyasi (NEO-FFI): Professional qo‘llanma. Odessa, FL: Psixologik baholash manbalari, 1992. 101 p.
4. Bogg T., Roberts B.V. Vijdonlilik va salomatlik bilan bog‘liq xatti-harakatlar: o‘limga olib keladigan etakchi xatti-harakatlarning meta-tahlili // Psixologik xabarnoma. 2004. jild. 130, № 6. B. 887-919.
5. G‘oziyev E.G‘. Shaxs psixologiyasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2003. 240 b.
6. Karimova V.M. Psixologiya. Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. 312 b.
7. Mamatov M.M. Tibbiy psixologiya asoslari. Toshkent: Innovatsiya, 2019. 198 b.
8. Rasulov A.R. Surunkali tibbiy yordam moslashuv muammolari // Psixologiya ilmiy jurnali. 2020. № 2. B. 45-52.

O‘QITUVCHILARDA KASBIY STRESSNING YUZAGA KELISHIGA TA’SIR ETUVCHI INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK OMILLAR

Konratbaeva Ayjamal Bazarbaevna
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
“Psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘qituvchilarda kasbiy stressning namoyon bo‘lishiga ta’sir etuvchi psixologik omillar, uning emotsional, kognitiv, fiziologik va xulq-atvoriy xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Pedagogik faoliyat jarayonida yuzaga keladigan psixoemotsional zo‘riqish, kasbiy mas’uliyat, ish yuklamasining ortishi, shaxslararo munosabatlardagi murakkabliklar hamda kasbiy kuyish sindromining o‘zaro bog‘liqligi yoritiladi. Shuningdek, o‘qituvchilarning stressga bardoshliligi, emotsional barqarorligi, psixologik moslashuvchanligi va kasbiy motivatsiyasining stressni boshqarishdagi ahamiyati asoslanadi. Kasbiy stressning salbiy oqibatlarini kamaytirish, pedagoglarning psixologik farovonligini ta’minlash va ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhitni shakllantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: kasbiy stress, pedagogik faoliyat, o‘qituvchi, psixoemotsional zo‘riqish, emotsional barqarorlik, kasbiy kuyish, stressga bardoshlilik, psixologik farovonlik, koping strategiyalar, kasbiy moslashuv.

ИНДИВИДУАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ВОЗНИКНОВЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО СТРЕССА У УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация. В данной статье рассматриваются психологические факторы, влияющие на проявление профессионального стресса у учителей, а также анализируются его эмоциональные, когнитивные, физиологические и поведенческие особенности. Раскрывается взаимосвязь психоэмоционального напряжения, профессиональной ответственности, повышенной рабочей нагрузки, сложностей межличностных отношений и синдрома профессионального выгорания в педагогической деятельности. Особое внимание уделяется роли стрессоустойчивости, эмоциональной стабильности, психологической гибкости и профессиональной мотивации учителей в преодолении профессионального стресса. На основе теоретического анализа предлагаются научно-практические рекомендации, направленные на

снижение негативных последствий профессионального стресса, обеспечение психологического благополучия педагогов и формирование благоприятной психологической среды в образовательных учреждениях.

Ключевые слова: профессиональный стресс, педагогическая деятельность, учитель, психоэмоциональное напряжение, эмоциональная стабильность, профессиональное выгорание, стрессоустойчивость, психологическое благополучие, копинг-стратегии, профессиональная адаптация

INDIVIDUAL PSYCHOLOGICAL FACTORS INFLUENCING THE OCCURRENCE OF OCCUPATIONAL STRESS AMONG TEACHERS

Abstract. This article examines the psychological factors influencing the manifestation of occupational stress among teachers and analyzes its emotional, cognitive, physiological, and behavioral characteristics. It explores the interrelationships between psycho-emotional strain, professional responsibility, increased workload, interpersonal difficulties, and burnout syndrome in teaching activities. Particular attention is paid to the role of stress resilience, emotional stability, psychological flexibility, and professional motivation in managing occupational stress among teachers. Based on a theoretical analysis, the article provides scientific and practical recommendations aimed at reducing the negative consequences of occupational stress, promoting teachers' psychological well-being, and creating a supportive psychological environment in educational institutions.

Keywords: occupational stress, teaching activities, teacher, psycho-emotional strain, emotional stability, professional burnout, stress resilience, psychological well-being, coping strategies, professional adaptation.

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, ta’lim sifatiga qo‘yilayotgan talablarning ortib borishi, innovatsion pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi hamda o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish zarurati pedagogik faoliyatning psixologik mazmunini yanada murakkablashtirmoqda. Ayniqsa, o‘qituvchilarning yuqori kasbiy mas’uliyat sharoitida faoliyat yuritishi, o‘quvchilar va ularning ota-onalari bilan doimiy muloqotda bo‘lishi, ta’lim natijalari uchun javobgarlikni his qilishi hamda kasbiy va shaxsiy hayot o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga intilishi ularda kasbiy stressning yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi muhim omillar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagoglarning kasbiy maqomini mustahkamlash, ularning mehnat sharoitlarini yaxshilash va ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan davlat siyosati mazkur muammoni tadqiq etishning muhim ijtimoiy-huquqiy asosini tashkil etadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son «2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmonida jamiyatda o‘qituvchi kasbi nufuzini oshirish, pedagoglar uchun qulay ijtimoiy sharoitlar yaratish, ularning mehnatini munosib rag‘batlantirish va uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlash ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan [1]. Mazkur vazifalar pedagoglarning nafaqat kasbiy kompetentligini rivojlantirish, balki ularning psixologik farovonligi va mehnat faoliyatiga moslashuvini o‘rganish zaruratini ham ilmiy jihatdan asoslaydi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son «Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonida pedagog kadrlarni kasbiy sertifikatlash, ularning faoliyatini baholash hamda ta’lim tizimini tashkiliy jihatdan takomillashtirish masalalari nazarda tutilgan [2]. Ushbu islohotlar sharoitida o‘qituvchilarning yangi kasbiy talablarga psixologik moslashuvi, o‘z kasbiy imkoniyatlariga ishonchi va baholash jarayonlari bilan bog‘liq zo‘riqishlarini o‘rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro miqyosda ham mehnat faoliyati bilan bog‘liq psixologik salomatlik masalasi dolzarb hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining 2022-yilda e’lon qilingan «Mehnat faoliyatida ruhiy salomatlik bo‘yicha tavsiyalar»ida tashkiliy omillarni yaxshilash, psixoijtimoiy xavflarni kamaytirish, xodimlarning stressni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish muhimligi ta’kidlangan [9].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o‘qituvchilarda kasbiy stressning yuzaga kelish mexanizmlari, uning shaxsiy va tashkiliy omillar bilan bog‘liqligi, psixologik namoyon bo‘lish shakllari hamda stressga bardoshlilikni rivojlantirish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Kasbiy stress muammosi xorijiy psixologiya fanida shaxsning moslashuv imkoniyatlari, emotsional regulyatsiya, kasbiy faoliyat samaradorligi va psixologik farovonlik bilan bog‘liq holda keng tadqiq etilgan.

Stressning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqqan G.Selye (1956) stressni organizmning turli tashqi va ichki ta’sirlarga nisbatan umumiy moslashuv reaksiyasi sifatida izohlagan [3]. Olim tomonidan ishlab chiqilgan umumiy adaptatsion sindrom konsepsiyasida stressning xavotir reaksiyasi, qarshilik ko‘rsatish va holdan

toyish bosqichlari ajratilgan. Mazkur yondashuv o‘qituvchilarda davomli kasbiy zo‘riqish natijasida yuzaga keladigan psixofiziologik charchash jarayonlarini tushuntirish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

R.Lazarus va S.Folkman (1984) tomonidan ishlab chiqilgan stressning tranzaksion nazariyasida stress shaxs va muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar natijasi sifatida talqin etiladi [4]. Ushbu nazariyaga ko‘ra, stressning kuchi faqat tashqi vaziyatning murakkabligi bilan emas, balki shaxsning vaziyatni subyektiv baholashi va uni yengish imkoniyatlarini qanday idrok etishi bilan ham belgilanadi. Mazkur yondashuv pedagogik faoliyatda bir xil kasbiy talablar turli o‘qituvchilarda turlicha psixologik reaksiyalarni yuzaga keltirishini izohlash imkonini beradi.

K.Maslach va S.Jackson (1981) kasbiy kuyish sindromini o‘rganib, uning emotsional holdan toyish, depersonalizatsiya va shaxsiy kasbiy yutuqlarni past baholash kabi asosiy komponentlarini ajratib ko‘rsatgan [5]. Keyinchalik K.Maslach, W.Schaufeli va M.Leiter (2001) kasbiy kuyishni uzoq davom etuvchi kasbiy stress bilan bog‘liq psixologik holat sifatida kengroq tahlil qilganlar [6]. Ushbu tadqiqotlar o‘qituvchilarda emotsional charchash, kasbiy faoliyatga nisbatan salbiy munosabat va kasbiy samaradorlik hissining pasayishi o‘rtasidagi aloqalarni tushuntirishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

C.Kyriacou (2001) o‘qituvchilar stressini pedagogik faoliyatning o‘ziga xos kasbiy muammosi sifatida tahlil qilib, uning yuzaga kelishida ish yuklamasi, o‘quvchilar bilan munosabatlar, vaqt tanqisligi va tashkiliy talablarning ahamiyatini ko‘rsatgan. Muallif o‘qituvchilar stressini o‘rganishda stress manbalari, individual farqlar va stressni yengish strategiyalarini kompleks tahlil qilish zarurligini ta’kidlagan [8].

Model diagnostika, individual jismoniy rivojlantirish, bosqichli vaziyatli mashq, refleksiv tahlil va transferni baholash qismlarini birlashtiradi. Jarayonning har bir qismi keyingi mashg‘ulot mazmunini aniqlashtirish uchun ma’lumot beradi. Dastlabki baholashdan keyin umumiy dastur o‘zgarmas tarzda qo‘llanmaydi: topshiriqning murakkabligi ta’lim oluvchining tayyorgarligi va kuzatilgan xatolariga qarab tuzatiladi.

Diagnostikada jismoniy tayyorgarlik, harakat texnikasi, oldingi mashg‘ulot tajribasi va o‘quv vazifasini tushunish darajasi ajratib baholanadi. Sinov natijalari mashg‘ulotga qo‘yish bo‘yicha tashkilotda belgilangan tartib bilan birga ko‘rib

chiqiladi. Kuch yoki chidamlilik natijasi past bo‘lgan ishtirokchi uchun vaziyatli fikrlash topshirig‘i soddalashtirilishi shart emas; aksincha, jismoniy yuklama uning imkoniyatiga moslashtiriladi. Bu ikki yo‘nalishdagi ehtiyojlarni chalkashtirmaslikka yordam beradi.

Jismoniy rivojlantirish qismida aerob chidamlilik, kuch, harakatni boshqarish va tiklanishning o‘zaro muvofiqligi ko‘zda tutiladi. Mashg‘ulot hajmi, shiddati, dam olish oralig‘i va murakkabligi alohida rejalashtiriladi. Funksional yoki interval mashq barcha ishtirokchilar uchun bir xil me’yorda belgilanmaydi. Yuklama kundaligi bajarilgan ish, subyektiv zo‘riqish va tiklanish haqidagi kuzatuvlarni jamlash vositasi bo‘lishi mumkin. Raqamli qurilmalardan olingan ko‘rsatkichlar o‘qituvchi kuzatuvi bilan birga talqin qilinadi.

Vaziyatli mashqlar avval barqaror sharoitda harakat algoritmini o‘zlashtirishdan boshlanadi. Keyin topshiriqning bitta belgisi o‘zgartiriladi: axborot tartibi, vaqt chegarasi yoki jamoa a’zolari vazifasi. Keyingi bosqichda bir nechta omil birlashtirilishi mumkin. O‘tish mezoni faqat bajarish tezligi emas, asosiy harakatlarning to‘g‘riligi va xavfsizlik talablariga rioya etishidir. Xato ko‘payganda murakkablik pasaytiriladi va zarur harakat qayta mashq qilinadi.

1-jadval.

Model qismlarini ta’lim guruhiga moslashtirish

Model qismi	Kursantlar uchun	Talabalar uchun
Jismoniy rivojlantirish	O‘quv dasturidagi xizmat vazifalariga mos kuch va chidamlilik mashqlari	Boshlang‘ich darajaga mos umumiy jismoniy rivojlanish va harakat ko‘nikmalari
Vaziyatli topshiriq	Belgilangan kasbiy vakolat doirasida rollar va harakat ketma-ketligini muvofiqlashtirish	Xavfni aniqlash, xavfsiz yo‘nalishni tanlash va yordam chaqirish
Simulyatsiya	Kasbiy ssenariydagi axborot almashinuvi va qarorlarni mashq qilish	Tushunarli kundalik favqulodda vaziyat ssenariylarini tahlil qilish
Murakkablikni oshirish	Avval o‘zlashtirilgan kasbiy harakatlarga qo‘shimcha vaziyat omillarini kiritish	Asosiy xavfsiz harakatlar barqarorlashgach, vazifa shartlarini o‘zgartirish
Qayta aloqa	Kasbiy tartib, jamoaviy kelishuv va xatolarning sabablarini muhokama qilish	Harakat maqsadi, xavfsiz tanlov va keyingi tuzatishni tushuntirish

Jadvaldagi farqlash tavsiyaviy bo‘lib, ta’lim muassasasining aniq o‘quv dasturi bilan muvofiqlashtirilishi kerak. Talabalar guruhining kasbiy yo‘nalishi, kursantlarning ixtisosligi va mavjud jihozlar mashg‘ulot mazmuniga ta’sir qiladi. Teng pedagogik imkoniyat yaratish barcha guruhlarga bir xil jismoniy yuklama berishni anglatmaydi.

Raqamli simulyatsiya vaziyatdagi belgilarni ajratish, qaror variantlarini taqqoslash va axborot almashinuvini qayta kuzatishga xizmat qilishi mumkin. Shu maqsad uchun murakkab virtual muhit shart emas: videovaziyat, interaktiv ssenariy yoki vaqt belgisi qo‘yilgan kuzatuv ham qo‘llanishi mumkin. Jismoniy kuch sarfi, muvozanat va real jihoz bilan harakat qilish talab etiladigan ko‘nikmalar amaliy mashg‘ulotda tekshiriladi. Vositaning pedagogik qiymati o‘quv maqsadiga qo‘shgan hissasi orqali baholanadi.

Debrifingda ta’lim oluvchi bajarilgan harakatni tasvirlaydi, tanlovini asoslaydi va muqobil variantni taklif etadi. O‘qituvchi kuzatilgan hodisa bilan taxminni ajratib, xatoning sababini aniqlashtiradi. Muhokama keyingi mashqda bajariladigan aniq tuzatish bilan yakunlanadi. Masalan, jamoaga xabar berish kechikkan bo‘lsa, takroriy mashq aynan axborotning mazmuni, adresati va tasdiqlanishiga yo‘naltiriladi. Bunda umumiy tanbeh o‘rniga kuzatiladigan harakat muhokama qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Natijalarni baholash va empirik tekshiruv loyihasi

Baholashda jismoniy imkoniyat, vaziyatli faoliyat va transfer natijalari alohida ko‘rsatiladi. Bitta umumiy ball yuqori jismoniy ko‘rsatkich hisobiga muhim xatoni yashirishi mumkin. Shu sababli xavfsizlikka oid jiddiy xatolar mustaqil qayd etiladi; bajarish vaqti esa topshiriqning to‘g‘riligi bilan birga talqin qilinadi. Ikkinchi jadval modelni tekshirish uchun taklif etilayotgan yo‘nalishlarni ifodalaydi.

2-jadval.

Baholash yo‘nalishlari va talqin chegaralari

Yo‘nalish	Kuzatiladigan dalil	Talqin va tekshirish sharti
Jismoniy tayyorgarlik	Tanlangan standart sinovda masofa, vaqt, takrorlar yoki kuch ko‘rsatkichi	Bir xil protokol va sharoit; natija qaror sifatining o‘rnini bosmaydi
Vaziyatli harakat	Muhim belgilarni aniqlash, qarorni asoslash, ketma-ketlik va jamoaviy aloqa	Oldindan yozilgan kuzatuv mezonlari; baholovchilar kelishuvini tekshirish

Xavfsizlik	Jiddiy xatolar, qoidaga rioya etish va mashqni to‘xtatish holatlari	Tezlikdagi yutuq xavfsizlik buzilishini qoplamaydi
Ko‘nikmaning saqlanishi	Mashg‘ulotdan keyingi belgilangan muddatda qayta bajarish	Muddat oldindan belgilanadi; qayta mashq qilish ta’siri qayd etiladi
Yangi vaziyatga transfer	Oldindan mashq qilinmagan ssenariyda tamoyilni qo‘llash	Ssenariy talablari qiyoslanadi; real ekstremal hodisadagi samara deb talqin qilinmaydi

Baholash varag‘ida har bir mezon kuzatiladigan tavsif bilan ifodalanishi kerak. «Yaxshi harakat qildi» o‘rniga «muhim axborotni jamoaga yetkazdi va qabul qilinganini tekshirdi» kabi tavsif ishlatiladi. Mezonga muvofiq tartibli darajalar yoki hodisani qayd etish shakli tanlanadi. Ularning mazmuniy muvofiqligi mutaxassislar muhokamasida, qo‘llanishi esa pilot sinovda tekshiriladi. Tekshirilmagan mezonlarni validatsiyalangan shkala deb atash mumkin emas.

Keyingi empirik tadqiqotda kursantlar va talabalar alohida qatlamlar sifatida ko‘rib chiqilishi maqsadga muvofiq. Tajriba boshlanishidan oldin asosiy natija, o‘lchash vaqti va taqqoslash sharti belgilanadi. Masalan, yangi ssenariydagi vaziyatli harakat sifati asosiy natija, jismoniy ko‘rsatkichlar va ko‘nikmaning saqlanishi qo‘shimcha natijalar bo‘lishi mumkin. Tanlanma hajmi oldindan tanlangan asosiy natija va amaliy jihatdan muhim farqqa asoslanib hisoblanadi.

Imkoniyat bo‘lsa, dastur va taqqoslash shartiga taqsimlash tasodifiy amalga oshiriladi. Guruhlar yaxlit o‘quv bo‘linmalari sifatida taqsimlansa, klaster tuzilmasi tanlanma hisobida va tahlilda e’tiborga olinadi. Taqqoslash guruhida mashg‘ulot davomiyligi, o‘qituvchi e’tibori va o‘lchash sharoitlarining imkon qadar mosligi ta’minlanadi. Boshlang‘ich tafovutlar, mashg‘ulotga qatnashish va qo‘shimcha jismoniy faoliyat qayd etiladi.

Statistik usul natijaning o‘lchov turi va tadqiqot dizayniga qarab tanlanadi. Uzluksiz ko‘rsatkichlar uchun boshlang‘ich qiymatga tuzatish kiritilgan kovariatsion tahlil yoki takroriy o‘lchovlarni hisobga oluvchi aralash model ko‘rib chiqilishi mumkin. Binar xato ko‘rsatkichlari va tartibli baholar uchun ularga mos modellar talab etiladi. Hisobotda guruhlararo farq, effekt o‘lchami va 95 foizlik ishonch oralig‘i beriladi; faqat p qiymati bilan cheklanish yetarli emas.

Baholovchilararo ishonchlilik ham o‘lchov turiga muvofiq tekshiriladi: uzluksiz baholar uchun sinf ichidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti, kategoriyali yoki tartibli baholar uchun mos kappa koeffitsiyenti tanlanishi mumkin. Videoyozuvlar imkon qadar guruhga mansublikni bilmaydigan baholovchi tomonidan tahlil

qilinadi. Yetishmayotgan ma’lumotlar sababi, tadqiqotdan chiqish holatlari, noxush hodisalar va ko‘p sonli taqqoslashlarga munosabat oldindan rejalashtiriladi.

Ishtirokchilar bilan tajriba o‘tkazishdan avval tegishli etik ko‘rib chiqish va xabardor rozilik tartibi bajarilishi kerak. Kursantning xizmat yoki o‘quv bo‘ysunuvi ishtirokning ixtiyoriyligiga ta’sir qilmasligi lozim. Videoyozuv va individual natijalardan foydalanish maqsadi, ularga kirish hamda saqlash tartibi protokolda belgilanadi. Bular kelajakdagi empirik ish shartlari bo‘lib, hozirgi nazariy maqolada etik ruxsat olingani da’vo qilinmaydi.

Taklif etilayotgan yondashuv jismoniy yuklama va vaziyat murakkabligini alohida boshqarish imkonini beradi. Bir mashqda ikkala omilni birdan oshirish qaysi unsur xatoga sabab bo‘lganini aniqlashni qiyinlashtirishi mumkin. Shu bois dastlab alohida komponentlarni o‘zlashtirish, so‘ng ularni birlashtirish taklif etiladi. Bu tartib metodik faraz bo‘lib, uning optimal ketma-ketligi va dozasini empirik tekshirish zarur.

Adabiyotlarda ijobiy jismoniy o‘zgarish qayd etilishi barcha mashg‘ulot turlarini bir xil samarali deb baholashga asos bermaydi. Ishtirokchilarning boshlang‘ich tayyorgarligi, mashg‘ulotga qatnashishi, o‘lchov usuli va vazifa mazmuni natijaga ta’sir qiladi. Harbiy yoki klinik ta’limdagi dalillarni umumiy universitet muhitiga ko‘chirishda maqsad va vakolatlar farqi saqlanishi kerak. Raqamli muhitdagi muvaffaqiyat real jismoniy faoliyatga transferni alohida tekshirish zaruratini bartaraf etmaydi.

Tadqiqotning asosiy cheklovi mahalliy empirik ma’lumotlarning yo‘qligidir. Manbalar maqsadli tanlangani sababli adabiyotlar qamrovi to‘liq emas; xatolik xavfi standart vosita bilan tizimli baholanmagan. Ayrim natijalar kichik tanlanma yoki boshqa kasbiy guruhlarga tegishli. Modelda keltirilgan baholash mezonlari, yuklama boshqaruvi va transfer topshiriqlari amaliy sinovdan o‘tmagan. Shu sababli maqola tayyor samaradorlik dalilini emas, tekshiriladigan pedagogik taklifni taqdim etadi.

XULOSA

Kursant va talabalarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishni murakkab vaziyatlarda harakat qilish ko‘nikmalaridan ajratmagan holda, ularning natijalarini mustaqil baholash zarur. Jismoniy ko‘rsatkichning o‘sishi qaror sifati, xavfsiz harakat yoki ko‘nikmaning yangi sharoitga ko‘chirilishini o‘z-o‘zidan tasdiqlamaydi. Adabiyotlar tahlili ushbu farqlashni saqlash uchun asos beradi.

Taklif etilgan model individual diagnostika, maqsadga mos jismoniy rivojlantirish, bosqichli vaziyatli mashqlar, debrifing va transferni tekshirishdan tashkil topadi. Kursantlar hamda talabalar uchun topshiriqlar kasbiy maqsad va tayyorgarlik darajasiga qarab farqlanadi. Modelni joriy etishdan oldin uning mezonlari va protokolini pilot sinovda tekshirish, keyin esa taqqoslash guruhi bilan

samaradorligini baholash lozim. Shu tartib pedagogik taklifni dalillar bilan asoslangan amaliy dasturga aylantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Biggs, J. (1996). Enhancing teaching through constructive alignment. Higher Education, 32, 347-364. https://doi.org/10.1007/BF00138871
2. Cavaleri, R., Withington, A., Chalmers, K. J., & Blackstock, F. (2023). The Influence of Stress on Student Performance during Simulation-Based Learning: A Pilot Randomized Trial. ATS Scholar, 4(4), 474-489. https://doi.org/10.34197/ats-scholar.2022-0042OC
3. Eather, N., Riley, N., Miller, A., Smith, V., Poole, A., Vincze, L., Morgan, P. J., & Lubans, D. R. (2019). Efficacy and feasibility of HIIT training for university students: The Uni-HIIT RCT. Journal of Science and Medicine in Sport, 22(5), 596-601. https://doi.org/10.1016/j.jsams.2018.11.016
4. Eppich, W., & Cheng, A. (2015). Promoting Excellence and Reflective Learning in Simulation (PEARLS): Development and rationale for a blended approach to health care simulation debriefing. Simulation in Healthcare, 10(2), 106-115. https://doi.org/10.1097/SIH.0000000000000072
5. Helén, J., Kyröläinen, H., Ojanen, T., Pihlainen, K., Santtila, M., Heikkinen, R., & Vaara, J. P. (2023). High-Intensity Functional Training Induces Superior Training Adaptations Compared With Traditional Military Physical Training. Journal of Strength and Conditioning Research, 37(12), 2477-2483. https://doi.org/10.1519/JSC.0000000000004559
6. Liaw, S. Y., Sutini, Chua, W. L., Tan, J. Z., Levett-Jones, T., Ashokka, B., Pan, T. L. T., Lau, S. T., & Ignacio, J. (2023). Desktop Virtual Reality Versus Face-to-Face Simulation for Team-Training on Stress Levels and Performance in Clinical Deterioration: a Randomised Controlled Trial. Journal of General Internal Medicine, 38, 67–73. https://doi.org/10.1007/s11606-022-07557-7

UDK: 61:378.147:004(575.1)

SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANGAN HOLDA TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING AXBOROT KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI ISHLAB CHIQISH TEXNOLOGIYASI

Sayfullaeva Dilbar Izzatillaevna
Toshkent davlat tibbiyot universiteti
«Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika» kafedrasi
katta o‘qituvchi
e-mail: d.sayfullayeva@tashmeduni.uz

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida axborot texnologiyalarini klinik fanlar bilan integratsiyalash uchun Z Education modelining kengaytirilgan varianti taqdim etilgan. Model milliy me’yoriy hujjatlar, mahalliy empirik ma’lumotlar hamda raqamli kompetentsiyalar, simulyatsion va mobil ta’lim, shuningdek, sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar tahliliga asoslanadi. Talabalarning onlayn muhitda o‘z imkoniyatlariga ishonchi pastligi, etarli darajada faol ishtirok etmasligi va raqamli vositalar bilan klinik amaliyot o‘rtasida uzilish mavjudligi asosiy muammolar sifatida aniqlangan.

Shu bilan birga, simulyatsiyalar, mobil ta’lim va tizimlashtirilgan qayta aloqaning samaradorligi ko‘rsatilgan. Bazaviy, integratsion va ilg‘or bosqichlarni, klinik-raqamli keyslarni, ob’ektiv baholashga asoslangan simulyatsiyalarni hamda sun’iy intellektdan tartibga solingan tarzda foydalanishni qamrab oluvchi ko‘p bosqichli Z Education modeli taklif etilgan. Modelning amaliy ahamiyati uni o‘quv dasturlarini yangilash va raqamli hamda klinik kompetentsiyalarni baholashda qo‘llash imkoniyati bilan belgilanadi.

Kalit so‘zlar: tibbiy ta’lim, raqamlashtirish, klinik fanlar, sun’iy intellekt, simulyatsion ta’lim, Z Education, raqamli sog‘liqni saqlash, tibbiy informatika, klinik kompetentsiyalar, ta’lim transformatsiyasi.

TECHNOLOGY FOR DEVELOPING A METHODOLOGY TO ENHANCE THE INFORMATION COMPETENCIES OF MEDICAL UNIVERSITY STUDENTS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Abstract. This paper presents an expanded Z Education model for integrating information technology with clinical disciplines in medical universities in Uzbekistan. This model is based on an analysis of national regulatory documents,

domestic empirical data, and international research in the field of digital competencies, simulation and mobile learning, and the use of artificial intelligence. The key challenges identified include low student self-efficacy in the online environment, insufficient engagement, and a gap between digital tools and clinical practice. Simulations, mobile learning, and structured feedback have also been shown to be effective. A multi-level Z Education model is proposed, including basic, integrated, and advanced stages, clinical and digital cases, simulations with objective assessment, and the regulated use of AI. The practical significance of this model lies in its applicability for updating curricula and assessing digital and clinical competencies.

Keywords: medical education, digitalization, clinical sciences, artificial intelligence, simulation-based learning, Generation Z, digital health, medical informatics, clinical competencies, educational transformation

ТЕХНОЛОГИЯ РАЗРАБОТКИ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКИХ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Аннотация. В статье представлена расширенная версия модели Z Education, предназначенная для интеграции информационных технологий с клиническими дисциплинами в высших медицинских образовательных учреждениях Узбекистана. Модель основана на анализе национальных нормативно-правовых документов, местных эмпирических данных, а также международных исследований в области цифровых компетенций, симуляционного и мобильного обучения и применения искусственного интеллекта. В качестве основных проблем выявлены низкий уровень уверенности студентов в собственных возможностях в онлайн-среде, недостаточная активность их участия в образовательном процессе и существующий разрыв между использованием цифровых инструментов и клинической практикой.

Вместе с тем показана эффективность симуляционных технологий, мобильного обучения и систематизированной обратной связи. Предложена многоэтапная модель Z Education, включающая базовый, интеграционный и продвинутый этапы, клинико-цифровые кейсы, симуляционные технологии с объективным оцениванием, а также регламентированное использование искусственного интеллекта. Практическая значимость модели определяется

возможностью её применения при обновлении образовательных программ и оценке цифровых и клинических компетенций.

Ключевые слова: медицинское образование, цифровизация, клинические дисциплины, искусственный интеллект, симуляционное обучение, Z Education, цифровое здравоохранение, медицинская информатика, клинические компетенции, трансформация образования.

KIRISH

O‘zbekistonda raqamli transformatsiya iqtisodiyot va ijtimoiy sohada axborot texnologiyalarini joriy etish ustuvorliklarini belgilab beruvchi strategik hujjatlarda mustahkamlangan [PF-6079-son Farmon, O‘RQ-547-son Qonun]. Oliy tibbiy ta’limda raqamlashtirish amaliy yo‘nalishga ega: u klinik kompetentsiyalarni o‘zlashtirish sifatini oshirishi va talabalar soni ortib borayotgan sharoitda ta’lim jarayonini kengaytirish imkonini ta’minlashi lozim [O‘RQ-1115-son Qonun]. Shu bilan birga, axborot texnologiyalarini klinik fanlar bilan integratsiyalash metodologiyasi shaxsga doir ma’lumotlarni muhofaza qilishga oid huquqiy talablar (jumladan, fuqarolar ma’lumotlarini qayta ishlash va saqlashni mahalliylashtirish) [PF-60-son Farmon] hamda sun’iy intellektdan foydalanishni tartibga soluvchi me’yorlar [Milliy statistika qo‘mitasi, 2025] bilan cheklanadi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimining jadal raqamlashtirilishi, teletibbiyot va elektron sog‘liqni saqlashni rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlarining amalga oshirilishi, shuningdek, «raqamli shifokorlar»ni tayyorlash zarurati bilan bog‘liq. Zamonaviy talabalar - Z Education (Z avlodi) axborotni qisqa va ko‘rgazmali shaklda qabul qilishga moyilligi hamda raqamli savodxonligining yuqoriligi tufayli vizuallashtirish, interaktivlik va tezkor qayta aloqaga tayangan yangicha pedagogik yondashuvlarni talab qiladi. Amaldagi metodologiya ko‘p hollarda parchalangan bo‘lib, axborot texnologiyalariga oid fanlar klinik kontekstdan ajratilgan holda o‘qitiladi.

Z Education bugungi talabalar kontingentining asosiy qismini tashkil etadi. Biroq «raqamli muhitga jalb etilganlik» mustaqil boshqariladigan onlayn ta’limga va axborotni tanqidiy tekshirishga tayyorlikni kafolatlamaydi. O‘zbekiston talabalarining masofaviy ta’lim tajribasiga oid tadqiqotda talabalarning onlayn ta’limdagi o‘z imkoniyatlariga ishonchi o‘qituvchilarning onlayn o‘qitish bo‘yicha o‘z imkoniyatlariga ishonchidan past ekani, talabalarning faol ishtirokini ta’minlash esa asosiy jarayon to‘sig‘i ekani qayd etilgan [PQ-358-son Qaror]. Bu axborot texnologiyalari tizimlashtirilgan o‘quv faoliyati va muntazam qayta aloqaga

kiritilgan metodologiya zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu ishning maqsadi - O‘zbekiston empirik ma’lumotlari va xalqaro dalillar asosida axborot texnologiyalari integratsiyasining qaysi elementlari Z Education klinik kompetentsiyalarini shakllantirishga kuchliroq ta’sir etishini aniqlash va mintaqaviy infratuzilmaviy hamda me’yoriy cheklovlarni hisobga oladigan Z Education kombinatsiyalashgan modelini taklif etish.

Milliy va xalqaro ma’lumotlarni taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, tibbiy ta’limni raqamlashtirish samaradorligi texnologiyaning o‘ziga emas, balki uning klinik kontekstga qay darajada kiritilganiga bog‘liq. Texnologiya alohida qo‘llanilganda talaba interfeysni o‘rganadi, biroq kasbiy ko‘nikmalar to‘liq shakllanmaydi. Agar texnologiya klinik keys orqali joriy etilsa, u fikrlash, tashxis qo‘yish va xavfsiz amaliyot vositasiga aylanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shunday qilib, Z Education raqamli vositalardan tarqoq foydalanishdan klinik yo‘naltirilgan tayyorgarlik tizimiga o‘tishni anglatadi; bunda texnologiyalar klinik ta’limning o‘rnini bosmaydi, balki uni kuchaytiradi.

Z Education modelining nazariy asoslari. Zamonaviy tibbiy ta’lim bilimlarni uzatishdan learning health system - «o‘rganuvchi sog‘liqni saqlash tizimi» modeliga o‘tmoqda. Unda ta’lim ma’lumotlar - harakat - qayta aloqa - takomillashtirish tsikli sifatida tashkil etiladi. Bu ta’limni klinik amaliyotga yaqinlashtiradi: raqamli vositalar qo‘shimcha emas, balki shifokor kompetentligini shakllantiruvchi muhit sifatida qaraladi [Zingg, 2025].

Raqamli professionalizm asosiy ahamiyat kasb etadi. Bu faqat texnologiyadan foydalanish emas, balki ma’lumotlarni tanqidiy baholash, axloqiy tamoyillar va maxfiylikka rioya qilish, hujjatlarni to‘g‘ri yuritish hamda algoritmlar cheklovlarini hisobga olgan holda qaror qabul qilish qobiliyatidir. Shuning uchun Z Education raqamli muhitda samarali ishlay oladigan shifokorni tayyorlashga qaratilgan.

Model bir nechta yondashuvga tayanadi: kontekstli ta’lim (klinik vaziyatlar orqali), deliberate practice (qayta aloqa bilan ko‘nikmalarni maqsadli mashq qilish), microlearning (takrorlashga asoslangan qisqa modullar) va data-informed teaching (ma’lumotlar tahliliga asoslangan o‘qitish).

Elektron tibbiy yozuvlar (electronic health records -EHR) alohida o‘rin tutadi. Ular nafaqat hujjatlashtirish vositasi, balki klinik tahlil, muloqot va huquqiy aniqlikni ta’minlash vositasidir. O‘qitish jarayonida EHRdan foydalanish nazariyani amaliyot bilan bog‘lashga hamda yaxlit klinik tafakkurni shakllantirishga yordam beradi.

Z Education modelining nazariy asosi klinik pedagogika, raqamli professionalizm, dalillarga asoslangan metodologiya va tartibga soluvchi me’yorlar

kesishmasida shakllanadi. Bu O‘zbekiston uchun ayniqsa muhim: model texnologiyadan butunlay voz kechish va uni asossiz joriy etish o‘rtasida muvozanatni ta’minlab, keng ko‘lamda qo‘llash imkoniyatini beradi.


O‘quv rejasi tuzilmasi. Z Education samaradorligi uning tibbiyot oliy ta’lim muassasasi tuzilmasiga integratsiya qilinishiga bog‘liq. Shu sababli raqamli-klinik kompetentsiyalar uch bosqichga taqsimlanadi.

Fundamental bosqichda (1-2-kurslar) tibbiy ma’lumotlar, axborot tizimlari, kiberxavfsizlik va shaxsga doir ma’lumotlar bilan ishlash asoslari shakllantiriladi. Asosiy vazifa raqamli tizimlar klinik voqelikni aks ettirishini ko‘rsatishdir; shuning uchun ta’lim oddiy tibbiy keyslar orqali tashkil etiladi.

Integratsion bosqichda (o‘rta kurslar) raqamli vositalar klinik fanlarga joriy etiladi: simulyatsiyalar, EHR maketlari, teletibbiyot va klinik algoritmlar qo‘llaniladi. Talaba texnologiyalardan kasbiy amaliyotning bir qismi sifatida foydalana boshlaydi.


Ilg‘or bosqichda (yuqori kurslar) ma’lumotlarni tahlil qilish, sun’iy intellekt asoslari va xavflarni baholash o‘zlashtiriladi. Maqsad dasturchi tayyorlash emas, balki raqamli vositalardan ongli va tanqidiy foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishdir. Yakuniy natija sifatida fanlararo loyihalar bajariladi.

Dastur spiralsimon tuzilishga ega bo‘lishi kerak: ma’lumotlar, hujjatlashtirish va sun’iy intellekt kabi mavzular tushunishdan qo‘llash va tahlil qilishga qadar murakkablashib takrorlanadi. Modullilik ham muhim: raqamli professionalizm, EHR, xavfsizlik, simulyatsiyalar va sun’iy intellektdan iborat bazaviy yadro turli kafedralarning ixtisoslashgan modullari bilan to‘ldiriladi. Bu modelni O‘zbekiston tibbiyot oliy ta’lim muassasalari sharoitiga moslashtirish imkonini beradi.




1-rasm. Raqamli ta’lim jarayoni ishtirokchilarining o‘z imkoniyatlariga ishonchi

1-rasm tavsifi. Diagrammada talabalar va o‘qituvchilarning raqamli ta’limga oid o‘z imkoniyatlariga ishonchi o‘rtacha ko‘rsatkichlari taqqoslangan. Guruhlar o‘rtasidagi tafovut talabalarga o‘quv jarayonida qo‘shimcha ko‘mak ko‘rsatish zarurligini bildiradi.



2-rasm. O‘qituvchilar fikriga ko‘ra raqamli ta’limning asosiy to‘siqlari

2-rasm tavsifi. Eng katta to‘siq talabalarning faol ishtiroki pastligi bo‘lib, keyingi o‘rinlarda muloqotdagi qiyinchiliklar va ish yuklamasining ortishi turadi. Bu raqamlashtirish jarayonida talabalarni jalb qilishning faol pedagogik dizayni zarurligini tasdiqlaydi.



3-rasm. Raqamli modullarning ta’limiy ta’sirini taqqoslash

3-rasm tavsifi. Diagramma raqamli ta’limga oid asosiy aralashuvlarning standartlashtirilgan ta’sir ko‘rsatkichlarini umumlashtiradi. Amaliy harakat,

takrorlash va tezkor qayta aloqani birlashtiradigan formatlar eng istiqbolli hisoblanadi.

Sifatni baholash va monitoring qilish tizimi. Raqamli islohotlarning zaif jihati - texnologiyalarni joriy etish bilan ularning foydasini dalillash o‘rtasidagi uzilishdir. Shu bois Z Education modelida vositadan foydalanishning o‘zi emas, balki uning ta’lim natijalariga ta’siri ham baholanadi.

Baholashning to‘rt bosqichi ajratiladi:

1. Bilim (testlar).

2. Ko‘nikmalar (simulyatsiyalar, tekshiruv ro‘yxatlari, harakatlar va hujjatlarning aniqligi).

3. Klinik-raqamli tafakkur (qarorlarni asoslash va sun’iy intellekt cheklovlarini tahlil qilishni talab qiluvchi keys-topshiriqlar).

4. Xulq-atvor darajasi (etika, maxfiylik, mas’uliyat).

Qo‘shimcha ravishda dastur analitikasi qo‘llaniladi: ma’lumotlarni himoya qilish talablariga rioya etgan holda faollik, xatolar va modullar samaradorligi kuzatib boriladi. Baholash bir martalik imtihon emas, balki uzluksiz tizimga aylanadi.

Joriy etish to‘siqlari. Asosiy cheklovlar infratuzilmaviy, kadrlarga oid, madaniy, huquqiy va pedagogik omillar bilan bog‘liq. Ular resurslardan foydalanish imkoniyatlarining teng emasligi, o‘qituvchilarda raqamli ko‘nikmalarning etishmasligi, texnologiyalarga shubha bilan qarash, ma’lumotlar xavfsizligiga oid xatarlar va raqamlashtirishga rasmiy yondashuvda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, o‘qituvchilar malakasi oshirilishi, sun’iy intellektdan foydalanishning aniq qoidalari belgilanishi va platformalar soniga emas, ta’lim natijalariga e’tibor qaratilishi kerak.

Amaliy joriy etish. Eng maqbul yo‘l - bosqichma-bosqich yondashuv: dastlab me’yorlar va kompetentsiyalar belgilanadi, keyin pilot echimlar (simulyatsiyalar, mobil modullar, cheklangan sun’iy intellekt) sinovdan o‘tkaziladi, shundan so‘ng kengaytirish va fanlararo integratsiya amalga oshiriladi. Samaradorlikni doimiy baholash va mahalliy sharoitlarni hisobga olish muhimdir.

XULOSA

O‘zbekiston tibbiy ta’limiga o‘lchanadigan natijalar va ma’lumotlar xavfsizligiga asoslangan tizimli raqamlashtirish zarur. Z Education modeli klinik yo‘naltirilganlik, zamonaviy texnologiyalar va moslashuvchan ta’limni birlashtiradi. Uning asosini klinik keyslar, spiralsimon tuzilma, ob’ektiv baholash va sun’iy intellektdan nazorat ostida foydalanish tashkil etadi. Bunday yondashuv shifokorlar tayyorgarligini barqaror modernizatsiya qilishga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim muassasalari raqamli professionalizm, EHR, xavfsizlik, simulyatsiyalar va sun’iy intellekt bo‘yicha bazaviy kompetentsiyalar yadrosini

belgilashi, ularni kafedralar o‘rtasida taqsimlashi va baholash tizimini muvofiqlashtirishi lozim. Raqamlashtirish ta’lim jarayonining boshqariladigan qismiga aylanishi uchun pilot modullar natijalar monitoringi va qayta aloqa bilan birga joriy etilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son «Raqamli O‘zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 iyuldagi O‘RQ-547-son «Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida»gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim. 2025.
5. O‘zbekiston Respublikasining 2026 yil 21 yanvardagi O‘RQ-1115-son «Sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solish munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi Qonuni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 14 oktyabrdagi PQ-358-son «Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Qarori.
7. Akhmedjanova D., Kerimova I. University Students and Teachers’ Experiences with Distance Education in Uzbekistan // Journal of Eastern European and Central Asian Research. 2024. Vol. 11, No. 1. P. 156-175. doi:10.15549/jeecar.v11i1.1282.
8. Car J., Ong Q.C., Toh T.E.F. et al. The Digital Health Competencies in Medical Education Framework: An International Consensus Statement Based on a Delphi Study // JAMA Network Open. 2025. Vol. 8, No. 1. Art. e2453131.
9. World Health Organization. Global Strategy on Digital Health 2020-2025. Geneva: WHO, 2021.
10. Shorey S., Ang E., Rajendran P., Chan V. Learning styles, preferences and needs of generation Z healthcare students: scoping review // Nurse Education in Practice. 2021. Vol. 57. Art. 103247. doi:10.1016/j.nepr.2021.103247.
11. Parpibaeva A.T. et al. The role of simulation training in teaching high-quality cardiopulmonary resuscitation to medical students. 2023.

12. UNICEF. Transforming Maths Learning in Uzbekistan: Eduten piloting implementation report. 2025.

13. Iqbal S.A., Patrinos H.A. Learning during the Pandemic: Evidence from Uzbekistan // IZA Discussion Paper. 2023. No. 16232.

14. Kim H.-Y., Kim E.-Y. Effects of Medical Education Program Using Virtual Reality: A Systematic Review and Meta-Analysis // International Journal of Environmental Research and Public Health. 2023. Vol. 20, No. 5. Art. 3895. doi:10.3390/ijerph20053895.

15. Dunleavy G., Nikolaou C.K., Nifakos S. et al. Mobile Digital Education for Health Professions: Systematic Review and Meta-Analysis // Journal of Medical Internet Research. 2019. Vol. 21, No. 2. Art. e12937. doi:10.2196/12937.

16. Chandran V.P., Balakrishnan A., Rashid M. et al. Mobile applications in medical education: a systematic review and meta-analysis // PLOS ONE. 2022. Vol. 17, No. 3. Art. e0265927. doi:10.1371/journal.pone.0265927.

17. Rodriguez-Segura D. EdTech in Developing Countries: A Review of the Evidence // The World Bank Research Observer. 2022. Vol. 37, No. 2. P. 171-203.

18. Zingg A., Tovar M., Maher N. et al. Clinical Informatics Education to Advance Learning Health Systems: A Scoping Review // Learning Health Systems. 2025. Vol. 10, No. 1. Art. e70050.

19. Itani A., Thomas P.A., Whelan A. Ethical considerations for teaching with artificial intelligence // Medical Education Online. 2025.

20. Jalali A., Blease C., Peccoralo L. et al. Twelve Practical Tips for Integrating AI Into Medical Education // JMIR Medical Education. 2025. Vol. 11. Art. e81297.

KASBIY MADANIYATSHUNOSLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING IMKONIYATLARI

Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
tayanch doktoranti
E-mail: mohikomilova@gmail.com
https://orcid.org/0000-0003-3448-4712

Annotatsiya: Maqolada oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi. «Kompetensiya», «kompetentlik» va «madaniyatshunoslik kompetensiyasi» tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib beriladi. Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasining tarkibiy qismlari (motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli va refleksiv) asoslanadi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim mazmunini loyihalash, interfaol va keys-texnologiyalar, loyiha faoliyati hamda madaniyatlararo muloqotga yo‘naltirilgan topshiriqlarni qo‘llashning samaradorligi ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, talabalarda madaniy merosni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni kasbiy faoliyatda qo‘llash, madaniyatlararo tolerantlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar belgilanadi.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, kompetentlik, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasi, madaniyat, madaniy meros, qadriyatlar, madaniyatlararo muloqot, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik shart-sharoitlar, interfaol metodlar.

ВОЗМОЖНОСТИ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Аннотация: В статье анализируются теоретические основы и практические возможности компетентностного подхода в развитии профессиональной культурологической компетенции будущих специалистов в высших учебных заведениях. Раскрывается сущность понятий «компетенция», «компетентность» и «культурологическая компетенция». Обосновываются структурные компоненты профессиональной культурологической компетенции (мотивационно-ценностный, когнитивный,

деятельностный и рефлексивный). Показана эффективность проектирования содержания образования на основе компетентностного подхода, применения интерактивных и кейс-технологий, проектной деятельности и заданий, ориентированных на межкультурную коммуникацию. Определены педагогические условия, способствующие осмыслению культурного наследия, применению национальных и общечеловеческих ценностей в профессиональной деятельности и формированию межкультурной толерантности студентов.

Ключевые слова: компетенция, компетентность, компетентностный подход, профессиональная культурологическая компетенция, культура, культурное наследие, ценности, межкультурная коммуникация, профессиональная подготовка, педагогические условия, интерактивные методы.

THE POTENTIAL OF THE COMPETENCY-BASED APPROACH IN DEVELOPING PROFESSIONAL CULTUROLOGICAL COMPETENCE

Abstract: The article analyzes the theoretical foundations and practical possibilities of the competency-based approach in developing the professional culturological competence of future specialists in higher education institutions. The essence of the concepts «competence», «competency» and «culturological competence» is revealed. The structural components of professional culturological competence (motivational-value, cognitive, activity-based and reflexive) are substantiated. The effectiveness of designing educational content on the basis of the competency-based approach, using interactive and case technologies, project activities and tasks oriented toward intercultural communication is demonstrated. Pedagogical conditions that help students understand cultural heritage, apply national and universal values in professional activity, and develop intercultural tolerance are identified.

Keywords: competence, competency, competency-based approach, professional culturological competence, culture, cultural heritage, values, intercultural communication, professional training, pedagogical conditions, interactive methods.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari jadal kechayotgan davrda jamiyat taraqqiyoti ko‘p jihatdan inson kapitali sifatiga, mutaxassislarning nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalariga, balki yuksak madaniyati, ma’naviy-axloqiy qiyofasi

hamda turli madaniyatlar vakillari bilan samarali muloqot qila olish qobiliyatiga bog‘liq bo‘lib bormoqda. Zamonaviy mehnat bozori oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilaridan tor ixtisoslik doirasidagi tayyorgarlik bilan bir qatorda keng madaniy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur anglash, ularni kasbiy faoliyatda ijodiy qo‘llay olishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish oliy ta’limning dolzarb vazifalaridan biriga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini isloh qilish, uni xalqaro standartlar talablariga moslashtirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»da ta’lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Shuningdek, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmon bilan qabul qilingan «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»da ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash vazifalari alohida ta’kidlangan. Mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalar talabalarning madaniyatshunoslik tayyorgarligini yangi metodologik asosda takomillashtirish zaruratini ko‘rsatadi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim natijalarini bilimlar yig‘indisi sifatida emas, balki shaxsning amaliy faoliyatda bilim, ko‘nikma, tajriba va qadriyatlarni integratsiyalashgan holda qo‘llay olish qobiliyati sifatida baholashga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Ushbu yondashuvning nazariy asoslari J.Raven, A.V.Xutorskoy, I.A.Zimnyaya kabi olimlarning tadqiqotlarida, ta’limga madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan yondashish masalalari esa Ye.V.Bondarevskaya va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida yoritilgan. Mamlakatimizda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammolari N.A.Muslimov va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan. Biroq kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasining mazmuni, tarkibiy tuzilishi hamda uni kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyalari hali yetarlicha tizimli tadqiq etilmagan.

Amaliyotda esa madaniyatshunoslikka oid fanlarni o‘qitish ko‘p hollarda nazariy ma’lumotlarni bayon qilish bilan cheklanib qolmoqda, talabalarning egallagan bilimlarini kasbiy vaziyatlarda qo‘llash, madaniyatlararo muloqotda faol ishtirok etish, madaniy hodisalarni tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga yetarlicha e’tibor qaratilmayapti. Natijada ta’lim mazmuni bilan

kasbiy faoliyat talablari o‘rtasida muayyan nomuvofiqlik yuzaga kelmoqda. Ushbu ziddiyatni bartaraf etish kompetensiyaviy yondashuv imkoniyatlaridan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Tadqiqotning maqsadi - bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning imkoniyatlarini aniqlash va uni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlarini asoslashdan iborat. Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlar va me’yoriy hujjatlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, pedagogik kuzatish, so‘rovnoma va pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi.

Kompetensiyaviy yondashuvning umumnazariy asoslari A.V. Xutorskoy [1] va I.A. Zimnyaya [2]ning fundamental tadqiqotlarida chuqur ishlab chiqilgan. Madaniyatshunoslik yondashuvi E.V. Bondarevskaya [3]ning ishlarida asoslangan. Mahalliy pedagogika fanida Z. Tolipov [4], F. Yo‘ldoshev [5]ning ishlarida kompetensiyaviy yondashuvni ta’lim tizimiga joriy etishning umumiy tamoyillari yoritilgan.

Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasi mohiyatan mavhum, keng qamrovli tushuncha bo‘lib, uni amaliy jihatdan rivojlantirish va baholash uchun aniq metodologik asos zarur [1]. Aynan kompetensiyaviy yondashuv bunday aniqlik va amaliy yo‘naltirilganlikni ta’minlashga qodir metodologik tizim hisoblanadi.

Kompetensiyaviy yondashuvning umumiy afzalliklari pedagogika fanida yaxshi ma’lum bo‘lsa-da, uning aynan madaniyatshunoslik kompetensiyasiga nisbatan qo‘llanilishidagi o‘ziga xos imkoniyatlari yetarlicha tizimli tahlil qilinmagan [2]. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolaning dolzarbligi belgilanadi [3]. Aynan kompetensiyaviy yondashuvning madaniyatshunoslik kompetensiyasiga nisbatan beruvchi o‘ziga xos imkoniyatlarini tizimli tahlil qiluvchi maxsus tadqiqotlar mahalliy fanda hali yetarli darajada mavjud emas, bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Aniq o‘quv natijalarini belgilash imkoniyati kompetensiyaviy yondashuvning eng muhim afzalligi hisoblanadi [1] - u orqali madaniyatshunoslik kompetensiyasi mavhum tushunchadan aniq, kuzatiladigan o‘quv natijalariga aylantiriladi. Diagnostika va o‘lchash imkoniyati esa kompetensiyaning rivojlanish darajasini standartlashtirilgan mezonlar orqali baholash imkonini beradi [2], bu esa talabalar rivojlanish dinamikasini ob’ektiv kuzatishga xizmat qiladi.

Modullashtirish imkoniyati kompetensiya tarkibiy qismlarini alohida, mustaqil o‘quv modullariga ajratib, moslashuvchan tarzda o‘qitish imkonini beradi [3]. Amaliyotga yo‘naltirilganlik imkoniyati esa kompetensiyani nazariy bilim emas, balki amaliy faoliyatda namoyon bo‘ladigan qobiliyat sifatida shakllantirishni

ta’minlaydi [4]. Nihoyat, transfer imkoniyati bir sohada shakllangan kompetensiyani boshqa kasbiy vazifalarga ko‘chirib qo‘llash qobiliyatini rivojlantiradi [5], bu esa bitiruvchining turli pedagogik vaziyatlarda moslashuvchan faoliyat yuritishini ta’minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kompetensiyaviy yondashuvning kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishdagi beshta imkoniyatini tahlil qilish jarayonida ularning mazmuni va amaliy natijasi tizimlashtirildi.

1-jadval

Tahlil natijalari quyidagi jadvalda umumlashtirilgan holda keltirilgan

№	Kompetensiyaviy yondashuv imkoniyati	Mazmuni	Amaliy natija
1	Aniq o‘quv natijalarini belgilash imkoniyati	Madaniyatshunoslik kompetensiyasini mavhum tushuncha emas, balki aniq, kuzatiladigan o‘quv natijalari shaklida ifodalash	O‘quv dasturi va baholash mezonlarining aniq, shaffof bo‘lishi
2	Diagnostika va o‘lchash imkoniyati	Kompetensiyaning rivojlanish darajasini standartlashtirilgan mezon va vositalar orqali baholash	Talabalar rivojlanish dinamikasini ob’ektiv kuzatish imkoniyati
3	Modullashtirish imkoniyati	Kompetensiya tarkibiy qismlarini alohida, mustaqil o‘quv modullariga ajratib, moslashuvchan tarzda o‘qitish	O‘quv jarayonini moslashuvchan va individuallashtirilgan tarzda tashkil etish
4	Amaliyotga yo‘naltirilganlik imkoniyati	Kompetensiyani nazariy bilim emas, balki amaliy faoliyatda namoyon bo‘ladigan qobiliyat sifatida shakllantirish	Bitiruvchining real kasbiy vaziyatlarda tayyor bo‘lishi
5	Transfer (ko‘chirish) imkoniyati	Bir sohada shakllangan kompetensiyani boshqa kasbiy vazifalarga ko‘chirib	Bitiruvchining turli pedagogik vaziyatlarda

№	Kompetensiyaviy yondashuv imkoniyati	Mazmuni	Amaliy natija
		qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish	moslashuvchan faoliyat yurita olishi

1-jadvalda keltirilgan tahlildan ko‘rinib turibdiki, kompetensiyaviy yondashuv madaniyatshunoslik kompetensiyasiga aniqlik, o‘lchanuvchanlik va amaliy yo‘naltirilganlik baxsh etadi. Umuman olganda, o‘tkazilgan tahlil kompetensiyaviy yondashuvning bu boradagi salohiyati yuqori ekanligini tasdiqladi.

Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish masalasini tahlil qilishda, avvalo, ushbu tushunchaning mazmunini aniqlashtirish muhim ahamiyatga ega. Ilmiy adabiyotlarda «kompetensiya» tushunchasi shaxsga oldindan qo‘yiladigan, uning muayyan sohadagi sifatli faoliyati uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va faoliyat usullari majmui sifatida, «kompetentlik» esa shaxsning ushbu kompetensiyani amalda egallaganlik darajasi, ya’ni uning shaxsiy sifati sifatida talqin etiladi. Mazkur farqlash kompetensiyaviy yondashuvning asosiy g‘oyasini - ta’lim natijasini «nimani biladi?» degan savoldan «nimani qila oladi va qanday qadriyatlarga tayanadi?» degan savolga ko‘chirishni aniq ifodalaydi.

